

**YANGI ISLOHOTLAR INSON QADRI UCHUN****Xo‘jamurodova Malika Lutfillo qizi**

Buxoro davlat Pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya**

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda inson qadri bosh masala hisoblanishi va uning boshqa ilgarigi islohotlardan nechog‘lik farq qilishi, bu islohotlar Yangi O‘zbekiston mavqeyini qanchalik oshirayotgani.

**Annotation**

In the large-scale reforms carried out in our country today, human value is considered the main issue and how different it is from other previous reforms, how much these reforms increase the status of New Uzbekistan.

**Аннотация:** В масштабных реформах, проводимых сегодня в нашей стране, главным вопросом считается человеческое достоинство и то, насколько оно отличается от других предыдущих реформ, насколько эти реформы повышают статус Нового Узбекистана.

**Kalit so‘zlar:** Inson qadri, Islom Karimov, Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch, 100ta maqsad, 15ta muhim islohot, xalq manfaatlarining ta’minlanishi.

Dunyoda qadimdan ma’lumki, davlatlar o‘z mavqeyini oshirish, shuningdek, mamlakatidagi notinch, beqaror vaziyatni bartaraf etish uchun turli sohalarda va albatta, turli maqsadlarni ko‘zlagan holda islohotlarni amalga oshiradilar. Har bir amalga oshirilayotgan islohotlardan albatta bitta maqsad ko‘zlanadi. Masalan, tarixga nazar tashl; aydigan bo‘lsak, islohotlar ikki xil natijada bo‘ladi: biri ijobiy ya’ni ko‘zlangan maqsadga erishtirgan islohot va ikkinchisi esa natijasiz yoki vaziyatni yanada beqarorlashtirib yuvorgan islohot. Islohotlarning qanday natija bilan tugashi nimaga bog‘liq degan savol yuzaga kelishi tabiiy holdir. Islohot chuqur o‘ylangan, reja asosida ishlab chiqilgan bo‘lsa, albatta natija bermasdan qolmaydi. Aksincha bo‘lsa, vaziyat yanada og‘irlashadi. Bu va bunga o‘xshash chuqur o‘ylab ko‘rilmay amalga oshirilgan islohotlar tarixda kam emas. Xususan, Dehli Sultonligida ham shunday natijasiz islohot amalga oshirilgan. Muhammad Tug‘luq 1325-yilda taxtga keladi. U o‘z hukmdorligini otasi paytida mustaqillik yo‘lini tutgan knyazliklarni bo‘ysundirishdan boshlaydi Sultonning soliq islohoti yuz bergan qurg‘oqchilik tufayli muvaffaqiyatsiz tugaydi. Tug‘luqning oltin va kumush pullar bilan teng muomalada bo‘lishi mo‘ljallangan mis tangalarini zarb qildirishi uni ko‘p o‘tmay qadrsizlanib ketishga, har ikki islohotning natijasiz tugashiga olib keladi. Islohotning o‘zi haqida gapirsak, Islohot bu - arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, ma’lum bir sohadagi mavjud tartibni o‘zgartirishdir. Islohotlar turli sohalarda amalga oshiriladi. Xususan: iqtisodiy, siyosiy, madaniy ijtimoiy va boshqalar.

Mamlakatimiz ham mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng turli sohalarda islohotlarni amalga oshira boshladi. O‘zbekiston mustaqillikka erishib, mustaqil O‘zbekiston Respublikasi nomini olgandan so‘ng hamma sohalarda juda katta ishlar amalga oshirildi va mustaqil taraqqiyotini qura boshladi . Eng avvalo barcha sohalar bo‘yicha islohni qadimgi an‘analar va diniy dunyoqarashni qayta tiklashdan boshladi . Islom Abdug‘aniyevich Karimov qadriyatlar va diniy urf-odatlarini mustaqillikni qo‘lga kiritmasdan oldin tiklay boshladilar . Dastlab,1989-yil 21- oktabr kuni o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi . Shundan so‘ng, ketma-ket milliy an‘analar tiklana boshlandi .Yana bir muhim va ko‘lami jihatidan katta bo‘lgan islohotlardan biri Navro‘z bayramining tiklanishi hisoblanadi . Bu to‘g‘risida 1990-yil 2-may kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston sovet sotsialistik jumhuriyati Prezidentining “Navro‘z xalq bayramini o‘tkazish yakunlari to‘g‘risida”gi farmoni e‘lon qilindi . Ushbu farmonning birinchi bandida shunday deyiladi: “O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Jumhuriyati hududida har yili 21-martni dam olish kuni va umumxalq Navro‘z bayrami dam olish kuni va umumxalq Navro‘z bayrami kuni deb e‘lon qilinsin” .

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha o‘zgarishlar sekin-asta, aholi talablaridan kelib chiqib olib borildi. Islohotlarni amalga oshirishda ijtimoiy holat, jamiyat hayoti har tomonlama o‘rganildi. Islohotlar strategik tarzda olib borildi . Islom Karimov islohotlar davrida nimalarni hisobga olish to‘g‘risida shunday deydi: “Islohotlarning strategiyasi va taktikasini belgilash chog‘ida jamiyatni isloh qilish va yangilashda belgilovchi ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘g‘inlarga alohida e‘tibor berish darkor”[1.202-bet]. Albatta, asosiy bo‘g‘in bu xalq,insonlar hisoblanadi . Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asarida shunday deydi: “Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi darkor” [2.66-bet]. Bugungi kunda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham islohotlarni xuddi shu tartibda olib bormoqdalar. Inson manfaatlarini ta‘minlash borasida Prezidentimiz tomonidab juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Dastlab, “Xalq qabulxonalari” Tashkil etildi. Xalq bilash ishlash tizimi takomillashtirilib borildi. 2017-yilni esa “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e‘lon qilindi va shu yil doirasida katta islohotlar amalga oshirildi. Bu va shu kabi tadbirlarning barchasi avvalo inson manfaatlari uchun, inson qadri uchun amalga oshirilmoqda. Ushbu yilga bunday nom berish islohotlarning maqsadini ko‘rsatuvchi bir belgidir. Prezidentimiz bunga quyidagicha yondashdilar: “Kirib kelayotgan yangi yil siyosatimizning bosh maqsadini’ya’ni, “Inson manfaatlari har narsadan ulug‘ ” degan ezgu g‘oyani izchil davom ettirish, Hayotimizni yanada obod va farovon etish yo‘lida yana bir ulkan qadam bo‘ldi” [3.26-bet]. Shavkat Mirziyoyev O‘zLiDep ning X syezdida “Har qanday islohot quruq raqamlarda emas, aholining dasturxonida aksini topishi kerak”, -deya ta‘kidlagani ham ko‘p narsadan dalolat beradi. Shavkat Mirziyoyev yana shunday ta‘kidlaydilar: “ Inson, uning haq-huquqlari, qadr-qimmati va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash hamda himoya qilish tamoyili, islohotlarimizning mohiyatini tashkil qilmoqda”.

Besh yil davomida mamlakatimizda Mirziyoyev tomonidan 15ta yirik islohotlar amalga oshirildi:

1. Markaziy Osiyoda yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari o‘rnatildi
2. Valyuta bozorining erkinlashtirilishi, naqd pul bilan bog‘liq muammolar bartaraf etilishi
3. Davlat xizmatlari tizimining rivojlantirilishi, Davlat xizmatlari markazlarining ishga tushirilishi, ortiqcha byurokrtiyaga barham berilishi
4. Turizmni rivojlantirish doirasida 90 mamlakat uchun vizasiz rejim, 48 mamlakat fuqarolari uchun vizasiz tranzit rejimi joriy etilishi
5. Inson huquqlari kafolatlarining kuchaytirilishi, majburiy mehnat, shu jumladan bolalar mehnatining tugatilishi
6. Aholi murojaatlari bilan ishlash va davlat organlarining ochiqligi bo‘yicha yangi tizimning joriy etilishi
7. Media muhitning kengaytirilishi: OAVlarning jamiyatdagi, muhim hukumat qarorlar qabul qilinishidagi rolining oshirilishi
8. Gender siyosatini yangi bosqichga olib chiqilganligi, xususan Respublika Gender komissiyasining tashkil etilishi
9. Oliy ta‘lim tizimining rivojlantirilishi: universitetlarga qabul kvotalarining oshirilishi, milliy va xorijiy OTMLar filiallarining ochilishi
10. Tadbirkorlik muhiti yaxshilanishi, xususan biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish va uni yuritish bo‘yicha jarayonlar soddalashtirilishi
11. Kambag‘allikni rasmiy darajada tan olinganligi va uni qisqartirish bo‘yicha kompleks yondashuv shakllanishi
12. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy va institutsional o‘zgarishlarning amalga oshirilishi
13. Yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimi joriy etilishi
14. O‘zbekistonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri 15 yil davomida doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga fuqarolikni qabul qilish tartibining joriy etilishi
15. Orol dengizining suvi qurigan tubida o‘rmon barpo qilinishi. BMT qoshida Orol dengizi mintaqasida Inson xavfsizligi bo‘yicha Trast fondining ishga tushirilishi, BMT Bosh assambleyasi Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi maxsus rezolyusiyaning qabul qilinishi.

Mamlakatimiz Prezidenti yangi o‘tgan yili saylovoldi dasturi doirasida hududlarga tashriflarda “Inson qadri uchun” tamoyilini barcha islohotlarning bosh mezon sifatida belgilanganini ta’kidladilar. Unda Shavkat Mirziyoyev : “Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta‘lim, ijtimoiy himoya

tizimi, sogʻlom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz.”,- deya taʼkidladilar. Shavkat Mirziyoyev ushbu yigʻilishda “Inson qadri uchun – 100ta maqsad” ni eʼlon qildi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun joriy yilning oʻzida 55 trilion soʻm va 11,7 mlrd dollarlik 398ta chora-tadbir amalga oshirilishi belgilanib olindi.

Shu oʻrinda taʼkidlab oʻtish darkor, mamlakatimiz bugungi kunda erishayotgan yutuqlari orqali dunyoga “Yangi Oʻzbekiston” nomi bilan tanilmoqda. Prezidentimiz yangilanayotgan mamlakatimiz maqsadini quyidagicha bayon etadilar: “Biz barpo etayotgan Yangi Oʻzbekistonning milliy gʻoyasi insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik gʻoyasi boʻladi”. [4.6-bet].

Inson qadri doimo bosh masala boʻlib kelgan. Qaysi mamlakat fuqarolarning manfaatlarini koʻzlab, islohotlarni xalq foydasiga amalga oshirsa, tabiiyki, bu mamlakat rivoji yuqori choʻqqiga erishadi. Mamlakatimiz rahbari ham xalq, inson manfaatlarini hamma narsadan ustun qoʻymoqdalar. Darhaqiqat, xalq bu- kuch, xalq bu- davlatning asosidir. Xalq boʻlmasa davlat ham rivojlana olmaydi. Mamlakatimiz doimo inson manfaatlarini koʻzlab, islohotlarni amalga oshirar ekan, ishonamanki yaqin kelajakda “Yangi Oʻzbekiston” butun dunyoga domg taratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik- milliy gʻoyamizning paydevoridir. Sh. Mirziyoyev. T. Tasvir. 2021. 6-bet.
2. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. Sh. Mirziyoyev. T. “Oʻzbekiston” nashriyoti. 2017-yil. 26-bet.
3. XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. I. Karimov. ziyo.uz kutubxonasi. 202-bet.
4. Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch. I. Karimov. 2008. Toshkent. 66-bet

### **Internet manbaalari:**

1. <https://www.xabar.uz> ›
2. <https://www.gazeta.uz>